MIFOLOGIYADA INSON OBRAZI: MIFOANTROPONIMLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Muzaffarova Mohisitora Jahongir qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti

lingvistika: o‘zbek tili yo‘nalishi 1-kurs magistranti

muzaffarovamohisitora@gmail.com

Melikova Munavvar Akbarali qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti

lingvistika: o‘zbek tili yo‘nalishi 1-kurs magistranti

melikovamunavvar25@gmail.com

ANNOTATSIYA. Maqolada o‘zbek mifologiyasidagi inson obrazini ifodalovchi mifologik shaxs nomlari – mifoantroponimlar (Xizr, Jamshid, Qayumars, Odami Od, Odam Ato) lingvokulturologik jihatdan tahlil qilinadi. Nomlarning mifologik qatlami, shakl variantlari, unvon va epitetlari hamda izohli lug‘at, turg‘un birikma va maqollardagi qo‘llanishi o‘rganiladi. Tahlil natijasida mifoantroponimlar tilda ko‘p qatlamli birlik sifatida saqlanishi, atoqli otdan umumlashgan madaniy belgiga (baraka, o‘lim va o‘lmaslik, hokimiyat va g‘urur) aylanishi, birinchi odam nomi (Odam) esa umumiy otga va insoniy me’yor tushunchasiga (“odam bo‘lmoq”, “odamgarchilik”) o‘tgani aniqlandi.

Kalit so‘zlar: mifologiya, mifoantroponim, inson obrazi, lingvokulturologiya, lingvomadaniy birlik, Xizr, Jamshid, Qayumars (Gayomart), epitet, turg‘un birikma.

АННОТАЦИЯ. В статье мифоантропонимы узбекской мифологии – Хызр, Джамшид, Каюмарс (Гайомарт), Одами од и Одам-ато – анализируются как лингвокультурные единицы, выражающие образ человека. Рассматриваются мифологические пласты имён (авестийский, исламский, народно-религиозный), их формы, титулы и эпитеты, а также употребление в устойчивых сочетаниях и пословицах. Анализ показывает, что мифоантропонимы сохраняются в языке как многослойные единицы, отождествляются друг с другом и из имени собственного превращаются в обобщённый культурный знак (благодать, смертность и бессмертие, власть и гордыня). Показано также, что имя первого человека (Одам) стало нарицательным словом и нормой человечности (odam bo‘lmoq, odamgarchilik).

Ключевые слова: мифология, мифоантропоним, образ человека, лингвокультурология, лингвокультурная единица, Хызр, Джамшид, Каюмарс (Гайомарт), эпитет, устойчивое сочетание.

ABSTRACT. The article analyses mythoanthroponyms of Uzbek mythology – Khizr, Jamshid, Qayumars (Gayomart), Odami Od and Odam Ato – as linguocultural units that express the image of the human being. It examines the mythological layers of the names (Avestan, Islamic, folk-religious), their forms, titles and epithets, and their use in set phrases and proverbs. The analysis shows that mythoanthroponyms survive in the language as multilayered units, are identified with one another, and develop from proper names into generalised cultural signs (blessing, mortality and immortality, power and pride). It is also shown that the name of the first man (Odam) became a common noun and a norm of humanness (odam bo‘lmoq, odamgarchilik).

Keywords: mythology, mythoanthroponym, image of the human being, linguoculturology, linguocultural unit, Khizr, Jamshid, Qayumars (Gayomart), epithet, set phrase.

Til xalqning tarixiy xotirasini, dunyoqarashini va madaniy qadriyatlarini saqlovchi vositadir. Qadimgi mifologik tasavvurlar tildan butunlay yo‘qolib ketmaydi: ular ism,

epitet, turg‘un birikma va maqol shaklida yashashda davom etadi. Shu bois mifologik nomlarni lingvokulturologik jihatdan o‘rganish til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib berishning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbek mifologiyasidagi obrazlar tarkibi ko‘pqatlamli bo‘lib, uning nisbatan qadimiy qatlami “Avesto” asosida shakllangan, keyingi qatlamlar esa islomiy va xalq e’tiqodlari bilan boyigan [1, 469]. Bu obrazlar orasida inson obrazi alohida o‘rin tutadi. Mifologik shaxs nomlari – mifoantroponimlar – aynan shu obrazni tilda ifodalaydi.

Folklorshunoslik adabiyotida mifoantroponimlar sifatida Xizr, Jamshid, Qayumars, Odami Od, Odam Ato kabi nomlar keltiriladi; shuningdek, mifonimlar “so‘z – konsept – obraz” paradigmasini hosil qilishini ham ko‘rishimiz mumkin. [1, 47]. Darslikda lingvokulturologiya mifonimlarni e’tibordan chetda qoldirmasligi ham aytib o‘tilgan, biroq bu yo‘nalishdagi tahlil batafsil davom ettirilmagan [1, 49]. Mifoantroponimlar lingvomadaniy birlik sifatida D. Ashurovning maqolasida o‘rganilgan; unda asosiy e’tibor “Alpomish” va “Kuntug‘mish” dostonlaridagi nomlarning poetik va semantik vazifasiga qaratilgan [2]. Mazkur maqolada esa mifologik inson nomlarining umumiste’mol tilidagi hayoti – atoqli otdan unvonga, epitetga, turg‘un birikma va maqolga o‘tish yo‘li – tahlil markazida turadi.

Ushbu maqolamizda o‘zbek mifologiyasidagi asosiy mifoantroponimlarning mifologik qatlami, til shakllari va madaniy ma’nosini aniqlash orqali ularda ifodalangan inson obrazining lingvokulturologik xususiyatlarini ko‘rsatishdir. Tahlilda tavsifiy, qiyosiy, etimologik va kontekstual tahlil usullaridan hamda leksik-semantik tahlildan foydalanildi.

Mifonim – mifologik tasavvurlarni ifodalovchi, tilda o‘ziga xos semantik yukni saqlovchi so‘z yoki so‘z birikmasi. Mifoantroponim esa mifologik yoki tarixiy-mifik asosga ega inson nomidir [2]. Folklorshunoslikda mifoantroponimlar bilan bir qatorda tangri va ma’budlar nomlari (teonimlar), demonologik personajlar nomlari (demononimlar), afsonaviy joy nomlari (mifotoponimlar) va boshqa guruhlar ajratiladi [1,

47]. Maqolada faqat mifoantroponimlar tahlil qilinadi, chunki aynan ular orqali tilda inson obrazi ifodalanadi.

Lingvomadaniy birlik deganda madaniy ma’no tilda saqlanuvchi va qayta ishlab chiqariluvchi so‘z yoki ibora tushuniladi. Mifoantroponim shunday birlikka aylanishi uchun ism faqat shaxsni nomlab qolmasdan, jamoa xotirasidagi belgini – fazilat, vazifa yoki holatni – anglatishi lozim. Rus tilshunosligida bunday ismlar “pretsedent nom” (прецедентное имя) deb ataladi: bu keng ma’lum matn yoki vaziyat bilan bog‘liq yoki “muayyan sifatlar majmuasini ko‘rsatuvchi ism-ramz” vazifasida keluvchi shaxsiy ism (masalan, Mozart, Kulibin) bo‘lib, jamoaning bilim zaxirasida ixchamlashtirilgan, milliy jihatdan belgilangan tasavvur sifatida saqlanadi [12, 62]. Mazkur maqolada bunday nomlarning mifdan kundalik nutqqa o‘tishi va qo‘llanilishini ko‘rsatish uchun foydalaniladi.

Xizr mifologik obrazidan boshlab tahlil qiladigan bo‘lsak, Xizr nomi Qur’onda tilga olinmagan. Ulamolar Qur’ondagi “Allohning quli”ni Xizr deb talqin qiladilar. Unga Iso, Ilyos va Idris singari abadiy hayot ato etilgani, u hayot bulog‘idan “obi hayot” ichib barhayot bo‘lgani aytiladi [7]. Shu bilan birga xalq tasavvurida Xizr suv va dehqonchilik bilan bog‘liq homiy obrazi sifatida yashaydi [1, 339; 436]. Demak, nomning o‘zida islomiy va qadimgi xalq e’tiqodi qatlamlari qo‘shilgan. Sh. Turdimov Xizr nomini qadimgi turkiy “eran” (“homiy ruh”) tushunchasi va quyosh ma’budi bilan bog‘laydi [3, 99–100]. Nomning etimologiyasi bahsli. Rabg‘uziy “Qissasi Rabg‘uziy”da: “Xizr ma’nisi yashil bo‘lur. Qayu tosh uza Xizr alayhissalom o‘ltursa, ul yer ko‘karur erdi”, deb yozadi [3, 99; 1, 525]. V. G. Ahmetyanov ham nomni arab tilidagi “yashil” ma’nosini bildiruvchi so‘zlar bilan bog‘laydi [3, 100]. M. Seyidov esa uni umumturkiy “xiz” (issiqlik) va “ir” (kishi, muqaddas iloh) qismlariga ajratadi [3, 100]. Ikki talqin ham nomni tabiatning jonlanishi – yashillik va issiqlik – bilan bog‘laydi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da nom arabcha “yashillanmoq, yashil tusga kirmoq” fe’lidan olingani ko‘rsatiladi va Xizr “hayot bulog‘idan «obi hayot” ichib, umri boqiy bo‘lgan taqvodor shaxs; og‘ir ahvolda qolgan kishilarga chol, suvori yoki yo‘lovchi ko‘rinishida uchrab, ularning mushkulini oson

qiladi» deb izohlanadi. Turk tilidagi ma’lumotlarda ham “Hızır” so‘zi ot emas, “yashil, yashillik” ma’nosini bildiruvchi sifat sifatida qaraladi [13]. Xizr nomi manbalarda bir necha shaklda uchraydi. Ularning har biri nomga alohida madaniy ma’no qo‘shadi (1-jadval).

1-jadval. Xizr nomining shakllari va ularning qatlami

Shakl	Vazifasi va qatlami
Xizr	Asosiy shakl; mifologik homiy nomi.
Hazrati Xizr	Islomiy unvon: izohli lug‘atda “hazrat” muqaddas zotlar ismi oldidan qo‘llanishi bilan izohlanadi (shu qatorda “Hazrati Odam” ham keltiriladi); mifologik homiy diniy hurmat bilan bog‘lanadi.
Xizr alayhissalom	Payg‘ambarlarga xos diniy formula.
Xizr bobo, Xizr buva	Qarindoshlik terminlari bilan hurmatli murojaat: obraz “yaqin, o‘zimizniki” tarzida beriladi.
Xo‘jayi Xizr (Xo‘jai Xizir)	“Xo‘ja” unvoni: homiylik, dehqonchilik va hosildorlik piri.
Xizr – Ilyos	Juft nom; turkiy xalqlardagi Hıdırellez bayrami nomi Xizr va Ilyos nomlarining qorishuvidan paydo bo‘lgan deb izohlanadi.

Jadvaldan ko‘rinadiki, bir ism atrofida uch xil belgi jamlangan: diniy unvon (“hazrat”, “alayhissalom”), qarindoshlik termini (“bobo”, “buva”) va ijtimoiy-homiylik unvoni (“xo‘ja”). Birinchisi obrazni muqaddaslashtiradi, ikkinchisi uni oila doirasiga yaqinlashtiradi, uchinchisi homiylik vazifasini ko‘rsatadi. Nom onomastik birlikka ham ko‘chgan: Samarqanddagi Afrosiyob tepaligida joylashgan masjid Hazrati Xizr nomi bilan ataladi [14].

Xalq asarlarida Xizr “obi hayot suvini ichib, barhayotlikka erishgan mifik personaj”, “odamlarni daryo, ariqdan o‘tkazib qo‘yadigan homiy”, “hassasini tekkizgan joydan suv chiqaruvchi, chashma paydo qiluvchi mifik qahramon” sifatida tasvirlanadi [1, 436]. Bu tavsiflarda uchta semantik maydon ajraladi: tiriklik va o‘lmaslik (obi hayot, barhayot), yo‘l va yordam (o‘tkazib qo‘yuvchi, maslahat beruvchi), suv va baraka (chashma, hosil). Tashqi belgilar ham ramziy ma’noga ega: Xizr yashil to‘n kiygan oq soqolli nuroniy chol ko‘rinishida tasvirlanadi, o‘ng qo‘lining bosh barmog‘i suyaksiz bo‘ladi [1, 436; 7]. Yashil rang nomning “yashil” ma’nosi bilan hamohang. Dostonlarda Xizr qahramonga farzand va davlat bashorat qiluvchi homiy sifatida keladi: Boybo‘rining tushiga “Xizr bobo” kiradi [1, 277]; boshqa o‘rinda u chiltanlar va boshqa homiy kuchlarga rahbarlik qiladi [1, 304].

Xizr nomi mifdan chiqib, baraka semasini ifodalovchi komponentga aylangan. Dehqonchilik e’tiqodiga ko‘ra, ekini zo‘r o‘sayotgan dalaga nisbatan “Xizr nazar solgan”, “Xizrning etagi tegib ketgan”, “Xizr etagini sudrab o‘tgan” deyiladi [1, 436]. Bu birikmalarda Xizr shaxs sifatida emas, hosildorlik va baraka sababchisi sifatida ishtirok etadi: ism “baraka” tushunchasining ifodachisiga aylangan.

Ism umumlashtirilgan yana bir misol – xalq tilidagi “Har kelganni Xizr bil” iborasi [7]. Unda har bir notanish kelgan kishi Xizr bo‘lishi mumkin, shuning uchun mehmonga hurmat bilan munosabatda bo‘lish lozim, degan g‘oya ifodalangan. Shu tarzda mifoantroponim insonga munosabat me’yorini bildiruvchi madaniy qoidaga xizmat qiladi.

Izohli lug‘atda Xizr nomi bilan bog‘liq turg‘un birikma va maqol alohida ko‘rsatilgan. “Xizrni yo‘qlasam (ham) bo‘lar ekan” iborasi so‘zlovchi yo‘qlab yoki istab turgan odam tasodifan kelib qolganda aytiladi; maqolda esa “Xizr nazar qilmasa, eshak bozorga dallol ham bo‘lolmaysan” deyiladi [9, “xizr”]. Ikkala birlikda ham Xizr o‘z vaqtida yetib keladigan yordamchi va omad keltiruvchi kuch sifatida ishtirok etadi.

Turk tilida ham shunga o‘xshash birliklar mavjud. Türk Dil Kurumining “Güncel Türkçe Sözlük”ida “Hızır gibi (imdadına yoki yordamiga) yetişmek” iborasi “birovning eng qisilgan paytida kutilmagan kishi yordamiga yetib kelmoq” deb izohlanadi [15];

shuningdek, “Hızır’ın eli değmiş”, “Kul bunalmayınca Hızır yetişmez” kabi ibora va maqollar qayd etiladi [13]. Solishtirish Xizr obrazi turkiy tillarda umumiy “o‘z vaqtida keluvchi yordamchi” semasini saqlaganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga o‘zbek tilidagi misollarda “tasodifan kelib qolish” va “nazar” (baraka) semasi, turk tilidagi misollarda esa “yetishish” (yordam) semasi ko‘proq ko‘zga tashlanadi.

Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida Xizrni mursal, ya’ni elchi-payg‘ambar sifatida eslaydi va “umri jovid topibdur” deb yozadi [3, 103]. G‘azallarida esa “Xizr umri” birikmasi cheksiz umr metaforasi sifatida keladi: “Labing xat zohir etti, Xizr umri bersalar o‘lgum, / Xususankim, Xizrg‘a hamdam o‘lg‘ay obi hayvoning” [3, 105]. Xizr obrazi Navoiyning olti devonining barchasida uchraydi [3, 102]; shoir “Xizr-u Masih” radifli ikki g‘azal ham bitgan [3, 110]; ayrim baytlarda Xizr rahbar va yo‘lboshlovchi sifatida talqin qilinadi [3, 115]. Demak, ism adabiy tilda ham o‘lmaslik semasini saqlab qolgan, ayni paytda yo‘lboshlovchi obraz sifatida ham talqin etiladi.

“Avesto”dagi Gaya Maretan nomi zardo‘shtiylik mifologiyasida yer yuzidagi birinchi odamni bildiradi. “O‘zbek mifologiyasi”da bu atama “foniy odam”, ya’ni “o‘limga mahkum etilgan” deb talqin qilinadi [1, 472]. Demak, birinchi odamning nomi o‘zida insonning o‘lim bilan belgilangan mavjudot ekanini saqlaydi. “Foniy” so‘zi izohli lug‘atda “tez o‘tib ketadigan; o‘tkinchi, omonat” deb izohlanadi va “foniy dunyodan boqiy dunyoga ketdi” tarzida qo‘llanadi; “boqiy” esa “doimiy, abadiy, mangu, o‘lmas” demakdir. Xizr esa izohli lug‘atda aynan “umri boqiy bo‘lgan” shaxs sifatida ta’riflanadi. Shu bois “foniy – boqiy” leksik qarama-qarshiligi Gayomart va Xizr obrazlarini til darajasida bir-biriga qarama-qarshi qo‘yadi. Nom shakllari uning tarixiy uzatilish yo‘lini ko‘rsatadi: o‘rta forscha Gayōmart, arabcha Jayūmart, manixeylarda Gehmurd o‘rta asr manbalarida Gavomard, Gayomat, Gopatshoh, Qo‘bodshoh, Qayumars [1, 469]. Pahlaviy “Dēnkard” matnida Gayomart “gil-shoh” (“loy shoh”) deb ataladi va uning tanasi yerdan yaratilgan. Bu islomiy tasavvur bilan hamohangdir, ya’ni musulmon e’tiqodiga ko‘ra inson tanasi tuproqdan yaratilgan [1, 196]. Tabariy va Balamiy Gayomartni Odam bilan aynan bir xil ekanligi aytadi.

O‘zbek folklorida nomning xalqona shakli saqlangan: Xorazm afsonalarida “Jumard qassob”, “Jonmardi qassob”, “Gavmard” nomlari qassoblar piri sifatida uchraydi [1, 469; 473–476]. Afsonaga ko‘ra, Jumard odamlarga mol so‘yishni, zargarlik va ma’dan qazishni o‘rgatgan. U “juda saxiy, qo‘li ochiq kishi” sifatida tasvirlanadi. Izohli lug‘atda “jo‘mard” “juvonmard”ga havola qilinadi va “mard, botir, dovyurak” hamda “olijanob, olihimmat” deb izohlanadi. Bu ma’nolar afsonadagi tavsif bilan mos keladi. Shu asosda nomning xalq etimologiyasi ta’sirida moslashgan, degan faraz ilgari surilishi mumkin. Mahalliy rivoyatga ko‘ra, Jumart hosilsizlik yilida qo‘shni hududlarga yangi go‘sht tarqatgan va chorvadorlar homiysi hisoblangan.

Islomiy qatlamda birinchi odam Odam Ato nomi bilan ataladi. Izohli lug‘atda “hazrat” unvoni qatorida “Hazrati Odam” shakli ham keltiriladi. Xalq afsonalarida u madaniy ixtirolar bilan bog‘lanadi: do‘mbirani Odam Ato bilan Momo Havo yasagan, uni shayton o‘g‘irlagan [1, 360]. Muhimi, Odam nomi tilda umumiy otga aylangan: “odam” so‘zi izohli lug‘atda “fikrlash, so‘zlash va mehnat qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan, shu tufayli boshqa hamma maxluqotdan ustun turuvchi jonli zot; kishi, inson” deb izohlanadi va etimologiyasi arabcha Odamato nomiga bog‘lanadi. “Odamzod” so‘zi esa asli “birinchi paydo bo‘lgan kishi” ma’nosidagi arabcha Odam nomi va “nasl” ma’nosidagi tojikcha “zod” qismidan tuzilgan bo‘lib, “odam nasli, inson” ma’nosini anglatadi. Shunday qilib, birinchi odamning ismi butun insoniyatning nomiga aylangan. Bu umumiy ot tilda inson me’yori tushunchasini ham ifodalaydi. “Odam bo‘lmoq” “tarbiya topib, yaxshi fazilatlarga, chin insoniy xislatlarga ega bo‘lmoq”, “odam qilmoq” esa “tarbiyalab, chin insonga, yaxshi fazilat sohibiga aylantirmoq” deb izohlanadi; “odam bolasi” birikmasi “odamzod” bilan bir qatorda “chin insoniy fazilatlarga ega shaxs” ma’nosiga ham ega bo‘lib, “Otang bolasi bo‘lma, odam bolasi bo‘l!” maqolida aynan shu ma’noda keladi. “Odamgarchilik” insonga mehr-muhabbat va insoniylikni, “odamgarchilikdan chiqmoq” esa insoniy qiyofasini yo‘qotishni bildiradi. Navoiy ham “odamiy” so‘zini axloqiy me’yor sifatida qo‘llagan: itning va eshak bolasining qancha tarbiyalanishi ularni odamga aylantirmaydi. Demak, birinchi odamning nomi tilda inson bo‘lish me’yorini ham belgilaydi.

Xalq afsonalarida Odami Od – bo‘yi bulutga yetadigan, duradgor, kuchli pahlavon-titan, ba’zi talqinlarda dunyodagi eng birinchi odam [1, 522]. Ilmiy manbaga ko‘ra, “od” so‘zi fors-tojikchada “ulkan odam” ma’nosini bildiradi [1, 522]. Boshqa o‘rnida Odami Od arab folklori mifologemasi sifatida keltiriladi [1, 36].

Jamshid – “Avesto”dagi Yima xshaeta nomining forscha Jam, Jamshed shakli. Yima so‘zi umumiy ot sifatida “egizak” ma’nosini bildirgan, xshaeta epiteti aniq izohlanmagan, u quyosh bilan bog‘lab “nurli” deb talqin qilinadi, musulmon mualliflar esa “shid” qismini “nur” deb tushunadilar [5]. O‘zbek tilida Jamshid erkak kishi ismi sifatida ham, “bazmi Jamshid” birikmasi tarkibida ajoyib, dabdabali ziyofat ma’nosida ham qo‘llanadi. Jamshid nomi bayram bilan bog‘liq holda ham yashaydi. Fors adabiyotda Jam va Navro‘z haqidagi miflar saqlangan. O‘zbek afsonasida esa Navro‘z Jamshid taxtga o‘tirgan kun bo‘lib, ulus bu kunni “navro‘z”, ya’ni “yangi kun” deb bayram qilgan [1, 134]. Bunda ism bayram nomining kelib chiqishini izohlovchi etimologik afsona vazifasini bajaradi.

Til birligi sifatida Jamshid nomi she’riy leksikaga “Jomi Jam” birikmasi orqali kirgan. “Jam kosasi” (jām-e Jam) fors adabiyotida yirik mavzu bo‘lsa-da, Firdavsiyning “Shohnoma”sida kosa Jamshidga emas, Kay Xusravga bog‘lanadi. Kosaning Jamshid bilan bog‘lanishini keyingi shoirlar — Nizomiy, Attor, Hofiz – yaratgan [6]. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da Jamshid sharobni ixtiro qilgani uchun shoirlar orasida “Jomi Jam” nomi bilan ham mashhurligi qayd etiladi [8]. Demak, “Jomi Jam” birikmasi mifdan emas, adabiy an’anadan kelib chiqqan lingvomadaniy birlikdir. Birikmaning ikkinchi qismi “jom” dastlab “mis” ma’nosini bildirgan, keyin “misdan yasalgan idish”, so‘ng “katta hajmli qadah” ma’nosini olgan. Izohli lug‘atda uning “sharob ichiladigan idish” va “qadah” ma’nolarini ham ko‘ramiz. Jamshid obrazining ikkinchi ma’no tomoni – hokimiyat va g‘urur. “Avesto”da Yima insonlar orasida eng ko‘p baxt (xvarenah)ga ega bo‘lgan, ammo yolg‘on tufayli uni va hokimiyatini yo‘qotgan kishi sifatida talqin etiladi. Ensiklopediya bayoniga ko‘ra, Jamshid xudolik da’vosini qilgach, Zahhok bosqini yuz bergan [8].

2-jadval. Mifoantroponimlar: qatlam, til birliklari va inson obrazining o‘lchamlari

Nom	Qatlam	Tilda mustahkamlangan birliklar	Inson obrazining o‘lchami
Xizr	Islomiy, xalq e’tiqodi, epik homiy	Hazrati Xizr, Xizr bobo/buva, Xo‘jayi Xizr; “Xizr nazar solgan”; “Xizrni yo‘qlasam ham bo‘lar ekan”; “Har kelganni Xizr bil”; “Xizr umri”	O‘lmaslik; yordam va homiylik; baraka; mehmonga munosabat me’yori
Qayumars (Gayomart)	Avesto, forsiy-islomiy, xalq tili	Gavomard, Qayumars; Jumard / Jonmardi qassob; foniy ↔ boqiy	O‘limga mahkumlik; tuproqdan yaralish; hunar o‘rgatuvchi ota
Odam Ato, Odami Od	Islomiy; xalq afsonasi	odam, odamzod, odam bolasi, odam bo‘lmoq, odamgarchilik; Odami Od	Insoniyatning ibtidosi; inson me’yori (odam bo‘lmoq, odamgarchilik); kuch va mehnat (duradgor-pahlavon)
Jamshid (Yima)	Avesto, forsiy adabiyot	Navro‘z afsonasi; “Jomi Jam”; “bazmi Jamshid”	Hukmdorlik va bilim; g‘urur va uning oqibati

Jadvaldagi ma’lumotlar mifoantroponimlarning lingvokulturologik xususiyatlarini quyidagicha umumlashtirishga imkon beradi.

Birinchidan, ko‘pqatlamlilik. Har bir nom shakllari xalqlarda o‘z izini saqlaydi: Qayumars, Gayomart, Gavomard, Gehmurd shakllari forsiy va arabcha adabiyotlardan bizga kirib kelganini, Hazrati Xizr va Xizr alayhissalom islomiy qatlamni, Xizr bobo va Xo‘jayi Xizr xalq e’tiqodini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, atoqli otdan madaniy belgiga o‘tish. Xizr nomi “baraka” va “mehmon hurmati” belgisiga, Jam nomi she’riy ramzga, Jumard nomi qassoblar piri nomiga aylangan. Ism mifdan uzilib, til birligiga, ya’ni lingvomadaniy birlikka aylanadi.

Uchinchidan, inson obrazining o‘lchamlari. Mifoantroponimlar insonni uch nuqtada tasvirlaydi: o‘lim va o‘lmaslik (Gayomart “foniy odam” nomi bilan o‘limni, Xizr esa “obi hayot” bilan o‘lmaslikni ifodalaydi), hokimiyat va g‘urur (Jamshid), homiylik va yordam (Xizr, Jumard). Bu uch o‘q o‘zbek tilidagi inson obrazining mifologik asosini tashkil etadi.

To‘rtinchidan, “odam” – inson me’yori. Birinchi odamning ismi umumiy otga aylanibgina qolmay, til birliklarida axloqiy me’yorga ham ko‘chgan: “odam bo‘lmoq”, “odam qilmoq”, “odamgarchilik”, “odamgarchilikdan chiqmoq” birikmalari insonni mifdagi birinchi odam nomi orqali baholaydi [9]. Bu hodisa mifoantroponimning eng chuqur lingvomadaniy o‘zgarishi atoqli otning umumiy otga va qadriyat tushunchasiga aylanishi ekanini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘zbek mifologiyasidagi asosiy mifoantroponimlar – Xizr, Jamshid, Qayumars, Odam Ato va Odami Od – tilda ko‘p qatlamli lingvomadaniy birlik sifatida saqlanadi. Ularning shakllarida “Avesto”, islomiy va xalq e’tiqodi qatlamlarining izi kuzatiladi. Nomning unvon va qarindoshlik terminlari bilan kengayishi (“Hazrati Xizr”, “Xizr bobo”, “Xo‘jayi Xizr”) mifologik obrazni diniy jihatdan muqaddaslashtiradi va jamiyatga yaqinlashtiradi. Xizr, Jamshid va Gayomart nomlari atoqli otdan umumlashgan madaniy belgiga aylangan. Baraka va vaqtida yetib keluvchi yordam (“Xizr nazar solgan”, “Xizrni yo‘qlasam ham bo‘lar ekan”), mehmonga hurmat (“Har kelganni Xizr bil”), she’riy ramz va dabdaba (“Jomi Jam”, “bazmi Jamshid”), kasb piri (Jumard qassob). Birinchi odam nomi – Odam – tilda umumiy otga (“odam”,

“odamzod”) va axloqiy me’yor tushunchasiga (“odam bo‘lmoq”, “odamgarchilik”) aylangan. Qisqa qilib aytganda, mifologiyada inson obrazi eng oliy qadriyat sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo‘rayev M., O‘rayeva D. O‘zbek mifologiyasi: Darslik. – T.: O‘qituvchi, 2019. – 558 b.

2. Ashurov D. Mifologema – ibtidoiy qarashlar bilan bog‘liq lingvomadaniy birlik sifatida // Oriens. – 2025. – B. 404–413. – URL: https://www.oriens.uz/media/journalarticles/55_Ashurov_Dilmurod_404-413.pdf

3. Abduraimova X., Ismoilov I. Alisher Navoiy g‘azaliyotida Xizr obrazi talqinlari // O‘zbekiston: til va madaniyat. – 2024. – № 1(2). – B. 98–119. – DOI: 10.47689/ULAC-vol1-iss1-y2024-pp98-119. – URL: https://inlibrary.uz/index.php/literary-science/article/view/30679

4. Shaki M. Gayōmart // Encyclopaedia Iranica. – 2000 (yangilangan 2015). – URL: https://www.iranicaonline.org/?p=2547

5. Jamšid // Encyclopaedia Iranica. – 2008 (yangilangan 2013); Skjærvø P. O. Jamšid i. Myth of Jamšid // Encyclopaedia Iranica. – 2012 (yangilangan 2016). – URL: https://iranicaonline.org/articles/jamsid-i

6. Porter Y. Jām-e Jam // Encyclopaedia Iranica. – 2021. – URL: https://iranicaonline.org/articles/jam-e-jam

7. Xizr // O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000–2005) ma’lumotlari asosida, Vikipediya. – URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/Xizr

8. Jamshid // O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild. – T., 2000 (Vikipediya orqali). – URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/Jamshid

9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80 000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi / A. Madvaliyev tahriri ostida. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008; yangi nashri: mas’ul muharrirlar A. Madvaliyev, D. Xudayberganova. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 864 b.

10. Rahmatillayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. 3-jild (forscha va tojikcha birliklar). – T.: Universitet, 2009 (“odamzod”, “jom” moddalari Vikilug‘at orqali). – URL: https://uz.wiktionary.org/wiki/odamzod

11. O‘rayeva D., Otajonova M., Nurullayeva S. Mif va badiiy ijod: O‘quv qo‘llanma. – Fan ziyosi, 2024. – 208 b.

12. Гудков Д. Б., Рассказов А. С. Динамика русского лингво-культурного пространства (на примере прецедентного имени) // Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей. Вып. 40. – М.: МАКС Пресс, 2010. – С. 61– (определение: С. 62).
URL: https://fonetika.philol.msu.ru/~slavphil/books/jsk_40_07gudkov_et.pdf

13. Hızır Kimdir? // Türk Dili ve Edebiyatı. – 2026.

URL: https://www.turkedebiyati.org/?p=47338

14. Hazrat Khizr Mosque (Samarqand) // Wikipedia.
URL: https://en.wikipedia.org/wiki/Hazrat_Khizr_Mosque

15. Güncel Türkçe Sözlük: “Hızır” maddesi // Türk Dil Kurumu.
URL: https://sozluk.gov.tr/gts?ara=Hızır

16. O‘zbekcha-ruscha lug‘at. – T., 1988 (“jamshid”, “odamiy” moddalari, Vikilug‘atning “Ruscha” bo‘limi orqali).
URL: https://uz.wiktionary.org/wiki/jamshid